

## BOLALARDA KARIES PROFILAKTİKASIDA FISSURALARNI MUHRLASH VA ULARNING AHAMIYATI

Khayitova Mokhinur Dzhuraevna

Asian International University.

Email: [mohinurxayitova45@gmail.com](mailto:mohinurxayitova45@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15399130>

**Annotatsiya.** Bolalar orasida eng keng tarqalgan stomatologik kasalliklardan biri bu — **tish kariesidir**. Kichik yoshdagi bolalarda ayniqsa **emal** (tish qoplamasi) to'liq shakllanmaganligi va gigiyenaga rioya qilishdagi qiyinchiliklar tufayli karies tez rivojlanadi.


Shu boisdan kariesning oldini olish, ya'ni **profilaktikasi** juda muhim. Ushbu yo'nalishda **fissuralarni muhrlash (plombalash)** samarali usullardan biridir.

**Kalit so'zlar:** fissura, muhrlash, germetik, kariyes, profilaktika, bakteriya.

### Kirish:

#### Fissuralar nima?

Fissuralar — bu tish taraqqiyoti, o'sishi va shakllanishi davrida uning emal qavatida yuzaga kelgan tabiiy burmalar oraliqida hosil bo'lgan tirqish bo'lib, ovqat chaynash paytida maydalangan oziq mahsulotlari, mikroorganizmlar kirib qoladi. Bu joylar ovqat qoldiqlari va mikroblar to'planishi uchun qulay bo'lib, ularni tozalash juda mushkul.



#### Fissuralarni muhrlash (plombalash) nima?

**Fissuralarni muhrlash** — bu maxsus muhrlovchi materiallar yordamida tishning chaynash yuzasidagi yorig'larini yopish usulidir. Bu yorig'larga karies paydo bo'lishining oldini olishda samarali hisoblanadi.

Tishlarni Muhrlashning 2 yo'li farqlanadi:

1) invaziv – fissuralarning kirish sohasidagi tish qattiq to'qimasini yuza charxlab kengaytirish yo'li bilan

2) noinvaziv – fissuralar atrof to'qimasiga tig' tegizmaslik yo'li bilan.

**Germetiklar** chaynov yuzalarida mexanik barer hosil qilib, ovqatlar, mikroorganizmlar va so'lakning fissuralarga, chuqurchalar, egatchalarga kirishiga to'sqinlik qiladi va bu sohalarda kariyes jarayonini keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarga barham beradi.

#### Muhrlash bosqichlari.

1. 35-37% li ortofosfor kislotasi bilan 15-20 sekund mobaynida tish yuzasiga ishlov berish.
2. Suv havo oqimi bilan tish sathidan kislotani yuvib tozalash. Yuvish vaqti kislotani berish vaqtiga teng bo'lishi kerak.
3. Tishlarni tamponlar yordamida izolyatsiya qilish
4. Germetik yotqiziladigan sathni quritish
5. Bond surtish.
6. Germetikni quritilgan tish yuzasiga tekis yotqizish (bunda havo pufakchalari hosil bo'lmashligini, tishlar munosabatida o'zgarish bo'lmashligini ta'minlash lozim). Natijasini bir haftadan, oydan, yarim yil, bir yildan so'ng nazorat qilib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



### Qachon va kimga muhrlash tavsiya etiladi?

- **6–7 yoshda** birinchi molyar chiqqanidan keyin;
- **12–13 yoshda** ikkinchi molyar chiqqanidan so'ng;
- Fissuralari chuqur va tozalash qiyin bo'lgan bolalarga, tishlar hali kariesga uchramagan, sog'lom holatda bo'lsa.

### Muhrlashning ahamiyati

- **Kariesdan himoya:** Fissuralarni yopish orqali bakteriyalar va ovqat qoldiqlari to'planishining oldi olinadi.
- **Tish gigiyenasini yengillashtiradi:** Silliqlik yuzaga ega bo'lgan tishlar osongina tozalanadi.
- **Davolash xarajatlarining kamayishi:** Kariesni davolashga ehtiyoj kamayadi.
- **Og'riqsiz va xavfsiz:** Jarayon og'riqsiz va bolalar uchun qulay hisoblanadi.
- **Tishlarni uzoq muddat sog'lom saqlash:** Fissura muhrlangan tishlar uzoq yillar kariesdan himoyalangan bo'ladi.

### 5. Muhrlashda ishlatiladigan materiallar

- **Fotopolimerlar** (nur ta'sirida qotadigan);
- **Shishaionomer sementlar** (ftorid moddasini ajratadigan);
- Shuningdek, ba'zida antibakterial komponentlar ham qo'shiladi.

### Xulosa

Bolalarda kariesni oldini olishda eng samarali va zamonaviy usullardan biri bu — **fissuralarni muhrlash** hisoblanadi. Bu usul tishni himoya qiluvchi, ogʻriqsiz, oson va uzoq muddatli natija beruvchi yondashuvdir. Har bir ota-ona farzandining doimiy tishlari chiqqanidan soʻng stomatologga murojaat qilib, bu usuldan foydalanishni koʻrib chiqishi lozim. Vaqtida amalga oshirilgan profilaktika — sogʻlom tishlar garovidir.

### REFERENCES

1. Khayitova, M. Z. (2024). Modern views on the Causes and Treatment of Caries of Temporary Teeth in Young Children. *International Journal of Alternative and Contemporary Therapy*, 2(9), 123-127.
2. Khayitova, M. D. (2024). Morphological Features of Bottle (Circular) Caries. *American Journal of Bioscience and Clinical Integrity*, 1(10), 117-124.
3. Dzhuraevna, K. M. (2024). Features of Caries Morbidity in Preschool Children. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(3), 300-305.
4. Hayitova, M., & Taylakova, D. (2023). DENTAL CARIES IS A DISEASE OF CIVILIZATION. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(8), 61-66.
5. Джураевна, К. М. (2024). Клинико-морфологические аспекты трещин на задних зубах у взрослых. *Научный журнал травматологии и инвалидности*, 3 (5), 429-432.
6. Dzhuraevna, K. M. (2024). Prevalence and Course of Dental Diseases Among Younger Patients. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(5), 433-436.
7. Хайитова, М. Д. (2023). Особенности Возникновение И Течение Кариеса Зубов. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 356-363.
8. Хайитова, М., & Тайлакова, Д. (2023). ВЗГЛЯД СТОМАТОЛОГА НА ГИГЕНУ ПОЛОСТИ РТА У ДЕТЕЙ. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(23), 58-59.
9. Хайитова, М. Д. (2023). РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ И РАСПРЕДЕЛЕНИЕ ТРЕЩИН НА ЗАДНИХ ЗУБАХ СРЕДИ ВЗРОСЛЫХ ПАЦИЕНТОВ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(1), 186-195.
10. Dzhuraevna, K. M. (2024). Clinical and Morphological Aspects of Cracks on The Back Teeth in Adults. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(5), 429-432.
11. Dzhuraevna, K. M. (2023). THE FREQUENCY OF DENTAL DISEASES IN CHILDREN (LITERATURE REVIEW). *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(1), 159-168.
12. Dzhuraevna, K. M. (2023). FEATURES OF THE OCCURRENCE OF DENTAL DISEASES IN CHILDREN. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(1), 178-185.
13. Khayitova, M. (2025). GUIDELINES FOR DENTAL EMERGENCIES DURING A PANDEMIC. *Modern Science and Research*, 4(1), 827-835.
14. Хаитова, М. (2025). СТОМАТОЛОГИК КАСАЛЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИДА ФТОР САКЛОВЧИ БИРИКМАЛАРНИНГ АХАМИЯТИ. *Современная наука и исследования*, 4 (2), 1055–1065.
15. Тошбеков Б. и Хаитова М. (2025). ТИШ КАРИЕСИ ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ ИНСОН ОРГАНИЗМИДАГИ АХАМИЯТИ. *Современная наука и исследования*, 4 (2), 591–594.



16. Khayitova, M. (2025). TISH YUZASIDA HOSIL BOLADIGAN KARASHLAR VA TOSHLAR (CHOKMALAR). *Modern Science and Research*, 4(3), 1405-1412.
17. Хаитова, М. (2025). ТИШ КАТТИК ТО'КИМАСИ РЕМИНЕРАЛИЗАЦИЯ КАРИЕС ПРОФИЛАКТИКАСИДАГИ О'РНИ. *Современная наука и исследования*, 4 (4), 1801–1806 гг.